



UO‘K: 1(091) + 27(091)

**YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA
XOJAGON-NAQSHBANDIYA TA’LIMOTIDAGI BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING O‘RNI VA
AHAMIYATI****МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ИДЕАЛОВ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УЧЕНИИ ХОДЖАГОН-
НАКШБАНДИЙ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ****THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF KHOJAGON-NAQSHBANDIY IDEALS IN
BUILDING THE THIRD RENAISSANCE FOUNDATION IN NEW UZBEKISTAN****Dehqonov Behzod Baxtiyorovich** Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasida dotsenti,
falsafa fanlari doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta’limotidagi bag‘rikenglik g‘oyalarining insonlar qalbiga poklik, bag‘rikenglik va ezgulikni singdirishni o‘ziga maqsad qilib olgani falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Xojagon-Naqsh-bandiya vakillari o‘z ta’limotlarida hamisha bag‘rikeng bo‘lib yashashga, qo‘ldan kelguncha hammaga yaxshilik qilishga, mehr-oqibatli, muruvvatli bo‘lishga da’vatlari va boshqa axloqiy fazilatlar haqidagi qarashlari ham ana shunday umuminsoniy ahamiyatga ega g‘oyalar ekanligiga ishonch hosil qilish, nafsni tiyish, irodani kuchaytirish, o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash kabi omillar haqida so‘z boradi.

Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируется идея толерантности в учении Ходжагона-Накшбанди, которая направлена на привитие чистоты, терпимости и добра в сердцах людей в построении фундамента третьего Возрождения в Новом Узбекистане. Представители Ходжагон-Накш-Бандия в своих учениях призывают всегда жить терпимо, делать всем как можно больше добра, быть добрыми и сострадательными, а их взгляды на другие нравственные добродетели также базируются на таких общезначимых идеях, как обуздание эго, укрепление воли, самовоспитание.

Abstract

This article analyzes from a philosophical point of view the idea of tolerance in the teachings of Khojagon-Naqshbandiyya in building the foundation of the third renaissance in New Uzbekistan, which aims to instill purity, tolerance and goodness in the hearts of people. The call of the representatives of Khojagon-Naqshbandiyya in their teachings to always live in tolerance, to do good to everyone as much as possible, to be kind and compassionate, and their views on other moral qualities are also such ideas of universal importance, such as restraining the ego, strengthening the will, and self-reeducation.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi renessans, Tasavvuf, Xojagon-Naqshbandiya, fariqat, bag‘rikenglik, insoniylik, irfon, Abduholiq G‘ijduvoni, tarbiya, axloq, ma’naviy etuklik.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третье Возрождение, суфизм, Ходжагон-Накшбандиья, различие, толерантность, гуманность, мудрость, Абдухолик Гиждувани, образование, нравственность, духовная зрелость.

Key words: New Uzbekistan, Third Renaissance, Sufism, Khojagon-Naqshbandiyya, difference, tolerance, humanity, wisdom, Abduhokholiq G‘ijduvani, education, morality, spiritual maturity.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasida bag‘rikenglik to‘g‘risidagi qarashlar tasavvuf ta’limotida yaxlit bir sistemaga solingan emas. Qator tadqiqotchilar tasavvufdagi borliq masalasiga ilmiy nuqtayi nazardan yondoshgan holda tabiiy-ilmiy bilimlar yutug‘i asosda uzviy o‘rganish lozimligi taklifini kirityaptilarkim, bu olam, borliq, manzarasini yanada konkretlashtiradi deb o‘ylaymiz.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan kuch bag‘ishlaydi. Bu esa bugungi kun bag‘rikeng xalqimiz va yosh avlod oldida Uchinchi Renessans poydevorini qurishda katta ma‘suliyat yuklaydi.

FALSAFA

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasida e'tiborga olindi.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining asosi bo'lgan oilalarda bag'rikenglik muhiti va shukronalik ruhida tarbiyalash masalalariga maxsus e'tibor berish lozim.

Davlatning qudrati, tayanch manbai bo'lgan oila tarixiy kategoriya hisoblanib, uning xususiyatlari moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Unga ta'riflar quyidagicha: Oila-jamiyatning kichik xujayrasi-jamiyat tarkibining muhim qismi bo'lib hisoblanadi. U kishilarning tabiiy-biologik, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy etnik birlikdir. Doimo oila yoshlar tarbiyasidagi asosiy bo'g'in hisoblanib kelingan. Oila yoshlarni axloq-odobli, rostgo'y, mehnatsevar, halol bo'lib voyaga etishi uchun zamin tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, oilaga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yanada kuchaydi. Bugun mamlakatimizda har bir oilaning mustahkamligi, tinchligi, farovonligi, sog'lomligi, oila a'zolarining o'zaro hurmat va ahilligini ta'minlash masalasi-davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Insonga juda ko'plab beg'ubor go'zal xislat va fazilatlar berilgan. Ana shu ne'matlarning eng ulug'i-bu shukronalik tuyg'usi. Ne'mat-bu albatta moddiy boyliklarning o'zidagina iborat emas, hayot ne'mati, jismdagi ichki va tashqi a'zolarining bir maromda ishlashi, ya'ni ko'zning ko'rishi, quloqning eshitishi, tilning ta'm bilishi, yurakning urib turishi, bularning barchasi albatta, bebaho ne'mat bo'lib, bizlarni shukr qilishga undaydi. Shukronalik, tinchlik, hotirjamlik bir maromdagi maqbul hayot tarzi hamdir. Shuningdek, shukronalik barqaror taraqqiyot poydevori hamdir. Shukronalik milliy ma'naviyatimizning uzviy jihatidir. Shukronalik tinchlik va barqarorlik mahsuli hisoblanadi. Shukronalik tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshirib kelingan. Bu yo'nalishlardan birinchisi-davlat siyosatiga fuqarolar tomonidan namoyon etiluvchi e'tirof, turmushdan rozilikni ifoda etuvchi ijtimoiy munosabatlar tushunilsa, ikkinchisi odamlarning diniy e'tiqodini va ilohiy qudratga aqlan va qalban anglab sig'iniluvchi munosabat sifatida yuzaga chiqadi. Tarbiya orqali shukronalikni inson xarakterining belgisiga, fazilatiga aylantiruvchi harakat barcha davrlarning dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Aholi turli qatlamlari orasida xususan yoshlar o'rtasida bugungi kungi hayotdan rozilik, shukronalikni tarbiyalash dolzarb ijtimoiy vazifalardandir. Milliy ma'naviyatimizda shukronalik keltirish insonning tarbiyalanganlik darajasini ham namoyon etib kelgan. Odamlarga yaxshilik qilish, mehr ulashish shukronalik xususiyatining tarkibiy jihatlaridandir. Zero shukronalik-bu tobelik emas, bu istak mayillarni jilovlashdir. U ruhiy iroda, sabr-qanoat, oqibat va saboq, salohiyat, yuksak madaniyat ifodasidir. Shukronalik insonning fikr-mulohazasi va hayotiy falsafasi, o'zini bag'ishlash qudrati. Shukronalik ayni vaqtda e'tiqod, mas'uliyat, barqarorlik omili. Shukronalik tuyg'usi bilan yashagan inson tafakkurida vazminlik, qiyosiy tahlil, mushohada, taftish, xulosa kabi fazilatlar shakllanadi.

Bugungi kunda Bahouddin mozorini ziyorat qilishning zamonaviy ko'rinishlari shakllangan. Ziyoratchilar avval Bahouddinning ustozlari Sayyid Amir Kulolni, keyin volidasi Bibi Orifani va oxirida Hazrat Naqshband qabrini ziyorat qilishadi. Xalq orasida ham Bahouddin ta'kidlagan "Avval onamni, keyin meni ziyorat qilinglar", degan tushunchalar keng tarqalgan. Ziyoratning ushbu shaklini farzandning Onasiga hurmati va ehtiromi ramzi deb bilishadi.

Yoshlar Bahouddin ziyoratgohini yayov-piyoda borib tavof qilishadi. Buning uchun ular tong sahardan yo'lga chiqib, Buxoro shahridan 12 chaqirimlik masofani bomdod namozigacha bosib o'tishni niyat qilishadi. Niyatlariga etsalar, ushbu amalni bajarishni hatto kichik hajning yarmiga barobar, degan xalqona tasavvurlarga ishonishadi. Ezgu niyatlar qilib Hazrat maqbarasi atrofini-"tabarruk ostona"ni supurishadi. Ushbu xatti-harakat xalq orasida "jo'ropkashlik" (toj.jo'rop-supurgi degani)deb nomlangan.

Bahouddin mozori joylashgan me'moriy-majmua asrlar davomida shakllanib, xalq e'tiqod qiladigan yirik ziyoratgohga aylangan. Naqshband maqbarasida o'tkaziladigan turli urf-odat, rasm-rusum va an'analar shaklida transformatsiyalashuv jarayoni davom etmoqda. E'tiqod amallarining islom diniga daxldor bo'lmagan shakllarini ko'rish mumkin. Mahalliy aholi, shuningdek, dunyo ziyoratchilarining ibodat amallarini tadqiq etish ijtimoiy, ma'naviy jihatini keng tahlil etishga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda avvalambor yoshlarni ta'lim va tarbiyasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Tarbiya-avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nan barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy etuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu ma'naviy tarbiyadir. Har qanday ma'naviy tarbiya dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligida olib borilsa, bu jarayonda shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki unda ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi. Albatta, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularni dunyoviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz boxabar qilib borish, bu qadriyatlarning inson, jamiyat taraqqiyotidagi mushtarak, garmonal o'rni beqiyosligini anglab etish o'rinlidir. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri nuqtayi nazaridan mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy hayotidagi eng dolzarb masalalardan biri yoshlarni dunyoviy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ertangi kunimizning haqiqiy vorislari sifatida kamol toptirishdir. Dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzida insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga munosabatini namoyon qiladi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatib, gohida ideal sifatida kishilarni samarali faoliyatga undasa, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab, qonun-qoida sifatida odamlarning xatti-harakatlari va turmush-tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi. Ularning faoliyatlarini boshqarib yoki yo'lga solib turadi, ya'ni regulativ funksiyasini bajaradi. Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an'alarini, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Dunyoviy qadriyatlarga Xojagon-naqshbandiya tariqati namoyondalarining asarlarida ifoda etilgan adolati jamiyat, komil inson, tinchlik va farovonlik g'oyalarini ham kiritish mumkin.

Qolaversa, yon-atrofdagi qo'shni va tarixiy taqdiri o'xshash davlatlarning barchasida tobora kuchayib, ko'pchilik ongi-shuurini zabt etayotgan neoliberalizm va globallashuv bilan bog'liq jarayonlar ta'siriga nisbatan to'g'ri fikrga keldiki, bu O'zbekiston rahbariyati uchun hal qiluvchi, taqdirbardor jihat edi. Zero, o'z davlatining buguni va kelajagi uchun faqat va faqat shu millatning o'zi, uning oliy siyosiy rahbariyati shaxsan javobgar. Ammo insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ma'naviy ravnaqi rang-barang va turli holatlarda kechganligi boisidan har bir xalq, millat va davlatning ehtiyojlari umumiy o'xshash tomonlarga qaramasdan, har biri uchun individual xarakter kasb etadi".

O'zbekiston rahbariyati tutgan aynan shu yo'l, ya'ni davlatning milliy asoslariga ustuvorlik berilishi bu o'zbeklar ongi, tafakkurining o'ziga xos tomoni bo'lib, boshqa mamlakatlarda bu jihat boshqacha ko'rinish berishi ham mumkin. Bu O'zbekistonning tanlovi. Zero, barcha millatlar, konkret ijtimoiy vaziyat hamda jahon tajribasidan chiqqan holda, qaysi tomonga qaysi paytda strategik ustuvorlik berishni o'zlari hal qiladi.

Tarixdan ma'lumki, turli sabablarga ko'ra o'zbeklar an'anasi, udumlari, ma'naviy qadriyatlari har doim qiyinchiliklarga qaramasdan o'zini, o'zligini namoyish eta olgan. Boshqalar esa uyg'unlik va o'zlikni saqlashda tub xalq atrofida hamjihatlikning eng baland cho'qqilariga chiqishgan. O'zbeklar ongi, tafakkurida shakllangan davlatchilik g'oyasini ular ham o'zini deb qabul qilgan. Bu jihat yangi davrda Prezident Sh.Mirziyoyevga "ko'zlagan barcha maqsad vazifalarimizga albatta etamiz. Bu borada men avvalo ko'p sinovlardan yorug' yuz bilan o'tgan olijanob xalqimizning mustahkam irodasi va mustahkam salohiyatiga ishonaman", deya qat'iy aytish imkoniyatini yaratdi.

Umuman, davlat oldidagi dasturiy vazifalarning bari muhim. Ammo ma'lum bir vaqt kesimida ulardan biri yoki ikkitasining dolzarblilik darajasi oshadi va bu esa, o'z navbatida, insoniyat umumiy boshdan kechirayotgan davr xarakteri bilan ham o'lchanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni qaratsak, uning davrga nisbatan "eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar", "milliy

FALSAFA

tariximizning eng keskin va tahlikali davri”, “notinch zamon”, “notinch mintaqa”, “global moliyaviy inqiroz”, “xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan”, “turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlar” singari konseptlarning ta’kidlanishi, Yangi O‘zbekiston davlati bugun o‘zini qay tarzda namoyon etmogi, davlat strategiyasini belgilashda davrdan chiqishning ma’no-mazmuni o‘z o‘zidan ayon bo‘ladi.

Mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev fikrlaridan yaqqol ko‘zga tashlanadigan uchta muhim jihat: davlatchiligimizni yangi qirralar bilan yanada boyitish, davlatimizning milliy asoslarini yanada mustahkamlash va nihoyat, tarixiy taraqqiyotning bugungi Uchinchi Renessans bosqichini bir biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rishning istiqbolimiz bilan chirmashib ketganligi, bu birdan bir yagona davr hukmi ekanligidir. Milliy tilimiz, milliy merosimiz, milliy modelimiz, milliy qonunchiligimiz, milliy davlatchiligimiz, milliy boshqaruv uslubimiz, milliy mentalitetimiz, milliy manfaatlarimiz tizimi, milliy ta’lim-tarbiya, milliy madaniyat va dunyoqarashimiz, milliy falsafamiz va boshqa ko‘plab milliy jihatlarimizning zamon ehtiyojlari bilan hamohangligi jahon hamjamiyati diqqat-e’tiboriga tushgan ekan, bu milliy strategik ustuvorligimizning ham bardavom va barhayotligining yaqqol guvohidir.

Zamonaviy nemis faylasufi Yu.Xabermas shunday yozadi: “bag‘rikenglik-liberal jamiyat fuqarolaridan talab qilinadigan siyosiy fazilat bo‘lib, o‘z navbatida, siyosiy jarayonda u yoki bu o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining fikr va qarashlar o‘zaro zid kelgan sharoitlarda o‘z nuqtayi nazarlarining chinligiga shubha qilmagan holda, biroq muammoli vaziyat xususida muxolif qarash va yondashuvlarning ham ifoda etilishiga imkon berishga tayyorlik va shu orqali o‘zaro munosabatlarning umumiy asoslarini saqlab qolishga intilish bilan bog‘liq konstruktiv xatti-harakatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi”.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘beklar etishib chiqadi. Men bunga ishonaman” deb ta’kidlaganlar.

Prezidentimiz olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi kunda Uchinchi Renessans davrining yana bir muhim jihatlaridan biri bu ta’lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagi ekanligi va o‘qitish jarayonining vazifasi ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta’minlashni nazarda tutadi, zero ta’lim-tarbiya inson kamoloti hamda millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir.

Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinganligi bu borada muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, mehnat sohasida yoshlarga imtiyozlar berish va ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha normalar belgilangan.

Shuningdek, 2021 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni doirasidagi tadbirlarni “Yoshlar - kelajagimiz” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish, ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va subsidiyalar berish tartibi bekor qilinib, loyihalarni kreditlash bozor tamoyillari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shundan kelib chiqib yurtimizda yoshlarni bag‘rikeng va tinchlikni qadriga etadigan kadrlar etib tarbiyalashda buyuk allomalar bilan bir qatorda pir-u, avliyolarning, tariqat vakillarining ta’limotlarini o‘rganib hayotga tadbiriq etilayotgani barchaga sir emas. Jumladan, Xojagon-naqshbandiya ta’limotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalarining axloqiy qarashlarini o‘rganish asosida ushbu ta’limotning axloqiy me’yorlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- ma’naviy va tanani tozalash normalari;
- o‘z-o‘zini bilish tamoyillari va bilim olishning axloqiy asoslari, sayohatchi xotirasi mazmunida faqat ijobiy, sof va zararsiz bilimlar saqlanishini ta’minlovchi normalar,
- marosimlarning o‘rtacha bajarilishini ta’minlaydigan normalar,
- bedorlik va mistik tushga o‘xshash holatga botish normalari;
- ijtimoiy xulq-atvorni va sayohatchining jamiyat va boshqa shaxslar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi normalar va boshqalar.

Bu va boshqa me'yorlarning mavjudligi Xojagon-naqshbandiya ta'limoti va uning tashuvchilari hayotiy tajribasining mafkurasi hamda axloqiy ta'limotida ratsionallikning salmoqli ulushidan dalolat beradi.

Tasavvufdagi Xojagon-naqshbandiya ta'limoti insonni barkamollikka etaklovchi bir yo'l bo'lib, unda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Moddiy, ya'ni jismonan barkamollikni asosan ruhiy holat boshqaradi. Ruhiiy-ma'naviy kamolotga erishgan insonlar komil insonlardir. Jamiyatda mana shunday yuksak maqomga erishib, xalqi, yurti uchun kamolot yo'lini o'z asarlari orqali bayon etgan buyuklarning hayot yo'li biz uchun ibrat maktabidir.

Tasavvufda inson holati haqidagi qarashlarda ikki xil talqin berilgan bo'lib, birinchisi uyg'ok yoki hushyor, ikkinchisi g'aflatda yoki bexud. Demak, Xojagon-naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik tamoyili bu sifatlashlar uchun aynan shu ikki holatga ishoratdir.

Insonning kundalik turmush jarayonida moddiylikning quli bo'lmay Oллоh yodi bilan forig'lanishi ya'ni, odamzot kundalik turmush tashvishi bilan band bo'lib qilayotgan ishi, orttirayotgan boylig-u, noz-ne'matlarga bog'lanib tavbani unutib qo'yadi. Oqibatda "dil ko'zini yog' bosib" g'aflat botqog'iga botib qoladi. Bu g'aflat botqog'i-mansab, shon-shuhrat, boyluk, obro', unvonga bog'lanib qolishdir. Lekin agar dunyo ishi bilan birga oxirat g'amini eb, istig'forda bo'lsa, uni hech qanday nafs o'z domiga torta olmaydi. Ogoh bo'lish, g'aflatdan uyg'onishning asosiy yo'li istig'for aytishdir. Istig'for aytish-bu xato, noto'g'ri yo'ldan qaytib, tavba qilish.

Bugun yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalashda, ularda yuksak insoniy fazilatlar, Vatanga, elga mehr-muhabbat, sadoqatlik, ajdodlarga munosib vorisilik, tarixiy xotira, tinchlik, barqarorlik, ozodlik va farovonlik kabi hamma vaqt zarur, hech qachon o'z qadriini yo'qotmaydigan eng yuksak tushuncha, tamoyillarni shakllantirishda oila institutining o'rni beqiyos. Bugun har bir oilada yoshlarga bobolar o'z pand-nasihatlarini, otalar o'z namunasi, onalar o'z mehr-muhabbati orqali Vatanga muhabbat, uning manfaati yo'lida qayg'urish, ajdodlar merosiga sadoqat, milliy ma'naviyatdan bahramandlik, insoniyatga hurmat, kelajak oldida mas'ullik kabi xalqimizga xos tuyg'ularni shakllantirishi zarur. Zero, Vatani bo'lmagan taqdirda insonlarning shaxsiy manfaatlarini ta'minlash-ona tilida so'zlashish, milliy qadriyatlar bilan faxrlanish, ajdodlar an'anasini munosib davom ettirish, oilaviy munosabatlar sog'lomligini davom ettirish imkonsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun ham yoshlar o'z manfaatlarini Vatanning taqdiridan, xalqimiz qadriyatlaridan, orzu-istaklaridan ayri holda tasavvur qilmasligi lozim. Xalqimizga xos milliy qadriyatlar albatta har tomonlama mukammal oila sharoitida shakllanadi. Shu ma'noda oila qadriyatlarini shakllantirish, takomillashtirish, eng muhimi davom ettirishning asosiy manbai hisoblanadi. Milliy qadriyatlar oila a'zolarining o'z-o'zini tarbiyalashga, ajdodlardan meros qolgan urf-odat, an'analarga munosib bo'lishga undaydi. Natijada oila a'zolarining ijtimoiy faolligi oshadi, ular o'z faoliyatlarida yaratuvchanlikka, bunyodkorlikka intila boshlaydilar. Bu borada ya'ni yoshlarni aqliy etuk, ruhan pok, jismonan baquvvat va albatta axloqan mukammal qilib tarbiyalash oilaviy turmush tarzi, tafakkur darajasiga bog'liq bo'lib, oilaning kattalari bu jarayonlarda ideallik vazifasini bajarishi lozim.

"Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim".

XULOSA

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri nuqtayi nazaridan jamiyatda qadriyatlarining yaratuvchisi, saqlab turguvchisi va albatta davom ettiruvchisi oila hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining eng oliy ko'rinishi bo'lmish tinchlik, bag'rikenglik, yaxshilik, go'zallik, haqiqat, erkinlik, tenglik, odillik, do'stlik, vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarga intilish barcha davrlarda bo'lgan. Bugun yoshlarda bunday yuksak qadriyatlarga intilishni ularning ehtiyojlari, manfaatlarini, orzu-istaklariga mos va uyg'unligini to'g'ri ta'minlash oila institutining muhim vazifasidir. Zero jamiyatdagi ustuvor qadriyatlarining darajalarida jamiyatdagi oilalarning ma'naviy etukligi, barkamolligi, undagi hayot tarzining insonparvarligi namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv davrida yoshlar ma'naviyati, ruhiyati, tarbiyasiga qarshi, ularning dunyoqarashini har tomonlama izdan chiqarishga qaratilgan g'oyaviy, ma'naviy, informatsion xurujlardan ularni asrashda oila ma'naviy boshqarish omili (regulyator) vazifasini to'laqonli bajarishi zarur.

Millatlararo totuvlik bag'rikenglik tushunchasining ma'naviy asosi, muhim mezoni bo'lib qolsagina, u hech qanday diniy, etnik mutaasiblikni keltirib chiqarmaydi.

Bag'rikenglik singari bunday insoniy fazilat xojagon-naqshbandiya ta'limoti orqali xalqimiz ma'naviy tarixida keng ko'lamda tarannum etildi. Uning qon-qongiga singib ketishida, oqibatda xalqimizning oliy fazilatlaridan biriga aylanishida Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining, xususan

FALSAFA

Xojagon-naqshbandiya ta'limoti g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Xojagon-naqshbandiya ta'limotining tarixiy xizmati va hozirgi davrimiz uchun ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati ana shundadir. Insonlar qalbiga poklik va ezgulikni singdirishni o'ziga maqsad qilib olgan Xojagon-naqshbandiya vakillari o'z ta'limotlarida hamisha bag'rikeng bo'lib yashashga, qo'ldan kelguncha hammaga yaxshilik qilishga, mehr-oqibatli, muruvvatli bo'lishga da'vatlari va boshqa axloqiy fazilatlar haqidagi qarashlari ham ana shunday umuminsoniy ahamiyatga ega g'oyalar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ajdodlarimiz merosi o'tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'p qirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish, saodati masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Ma'rifatga faqat ilm orqali erishiladi. Ilmga amal qilmaslik ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki, olim bo'la turib ilmni xor qilishlik eb turgan nonini oyoq osti qilishlik bilan barobardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. “Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // “Халқ сўзи” газетаси, 2018-йил 8-декабр.
2. Мизиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. –Б. 4, 21, 407, 421.
3. Саййид Амир Кулол зиёратгоҳи -Бухоро вилояти Когон тумани Сухор қишлоғида жойлашган. Баҳоуддин зиёратгоҳидан 5 км узоқликда.
4. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 78.
5. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.
6. 4. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.
7. Федотова Г.П. О национальном покаянии // Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2-х т. –Санкт Петербург, 1991. –С. 43.
8. Bakhtiyorovich, D. B. (2019). Tolerance of the Khojaghand-Nakbandian order of tolerance. *Indonesian Journal of Education Methods Development*, 8, 10-21070.
9. Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. – Москва, 2015. –С. 451.
10. Tursunovna, S. O., Bakhriddinovich, M. S., Bakhtiyarovich, D. B., & Makhmudovna, G. M. (2020). The issues of human and humanity in the teaching of Abdulkhalig Gijduvani. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 14-17.
11. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “МА’МUN SCIENCE*, 1(2).
12. Грачинов Е. Становление национальной школы теории МО // Международные процессы. –Тошкент: 4. – 2016. –№2. – С. 66.
13. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(13), 191-197.
14. Абдулқодир Жийлоний. Раббонийликни англаш. 1-китоб. –Тошкент: 2005 Б-25.